XALQ DEPUTATLARI YANGIOBOD TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

Yangiobod tumani 131300, Yangiobod shaharchasi Mustaqillik shoh ko‘chasi 1-uy.
Tel: (72) 542-12-27

2024 - yil 4 - yanvar VI-65-1-3-54-K/24 Yangiobod tumani hokimligi

Yangiobod tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning egaligida bo‘lgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha 2024-yil uchun soliq stavka miqdorlarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429- va 437-moddalari, Yangiobod tuman Soliq inspeksiyasining 2023-yil 14-dekabrdagi 24/02064-sonli xati hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2024-yil 4-yanvardagi VI-49-1-3-0-K/24-sonli qaroriga asosan Yangiobod tumanida yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari bazaviy soliq stavkasi 1 gektar uchun mutlaq miqdori 36,0 mln. so‘m hamda jismoniy shaxslarga 1 kv.metr uchun bazaviy soliq stavkasining mutlaq miqdori 304,0 so‘m minimal miqdor belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Yangiobod tumani uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun **yuridik shaxslar** bo‘yicha mutlaq miqdorda **1 gektar** yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun

berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar mustasno) bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (V.Xasanov) hududlar kesimida yuridik va jismoniy shaxslar uchun 2024-yilda belgilangan yer soliq stavkalarini tuman soliq inspeksiyasiga taqdim etilishini ta’minlasin.

5.Tuman soliq inspeksiyasi (A.Suyunov) ushbu qarorga asosan 2024-yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining hisoblanishi va belgilangan tartibda undirilishini ta’minlasin.

6.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Abdug‘aniyev), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (T.Shodmonqulov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Suyunov) 2024-yildagi byudjet-soliq siyosatidagi o‘zgarishlar, soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

7.Mazkur qaror “Yangiobod ovozi” gazetasi hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytida rasman e’lon qilinsin.

8.Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

9.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari R.Abdug‘aniyev zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi **I.B.Qarshiboyev**

Xalq deputatlari Yangiobod tuman
Kengashining
2024-yil 4-yanvardagi
VI-65-1-3-54-K/24-son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘lajallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

№	Hududlar nomi	Xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan 1 gektar uchun belgilangan soliq stavkasi, mln. so‘mda	Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qo‘llanilgan koeffitsiyent (0,7-3,0)		Tuman kesimida 1 gektar uchun yer solig‘i mln. so‘mda
			Kamaytiruvchi	Oshiruvchi	
1	***2***	***3***	***4***	***5***	***6***
1.	Yangiobod SHFY	36,0	0,78		28,08
2.	Sovot QFY	36,0	0,78		28,08
3.	Balandchaqir MFY	36,0	0,70		25,20
4.	Xo‘jamushkent QFY	36,0	0,72		25,92
5.	Do‘stlik MFY	36,0	0,72		25,92
6.	Havotog‘ QFY	36,0	0,70		25,20
7.	Shodlik MFY	36,0	0,72		25,92
8.	Sarmich MFY	36,0	0,72		25,92

Xalq deputatlari Yangiobod tuman
Kengashining
2024-yil 4-yanvardagi
VI-65-1-3-54-K/24-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

№	Hududlar nomi	Xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan 1 kv.m uchun belgilangan soliq stavkasi, so‘mda	Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qo‘llanilgan koeffitsiyent (0,7-3,0)		Tuman kesimida 1 kv.m uchun yer solig‘i, so‘mda
			Kamaytiruvchi	Oshiruvchi	
1	***2***	***3***	***4***	***5***	***6***
1.	Yangiobod SHFY	304,0	0,82		249,28
2.	Sovot QFY	304,0	0,78		237,12
3.	Balandchaqir MFY	304,0	0,70		212,80
4.	Xo‘jamushkent QFY	304,0	0,75		228,00
5.	Do‘stlik MFY	304,0	0,75		228,00
6.	Havotog‘ QFY	304,0	0,70		212,80
7.	Shodlik MFY	304,0	0,75		228,00
8.	Sarmich MFY	304,0	0,70		212,80